



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHI Q A R O R I

150100, Farg‘ona sh., Alisher Navoiy k., 15-uy, tel: (73) 244-07-35, e-mail: info@ferghana.uz, www.ferghana.uz

2023 - yil 8 - noyabr

VI-61-109-11-0-K/23

Farg‘ona viloyati hokimligi

“Farg‘ona-Rishton” magistral gaz quvurining II tarmog‘ini qurish” loyihasi doirasida tegishli yer uchastkalarini olib qo‘yish bo‘yicha tashabbusni dastlabki tarzda ko‘rib chiqish haqida.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida”gi Qonuni bilan, yer uchastkasini olib qo'yish bo'yicha tashabbusning yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yishga asos bo'ladigan maqsadlar asosida jamoat ehtiyojlariga muvofiqligi hamda yer uchastkasini olib qo'yish bilan bog'liq kutilayotgan sarf-xarajatlarning oqilonaligi masalasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, mahalliy Kengashning asoslantiruvchi materiallar kiritilganidan keyin chaqiriladigan navbatdagi ochiq majlisida dastlabki tarzda ko'rib chiqilishi, shuningdek, yer uchastkasini olib qo'yish bo'yicha tashabbusni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, mahalliy Kengashning majlislarida dastlabki tarzda ko'rib chiqish natijalariga ko'ra yer uchastkalarini olib qo'yish bo'yicha tashabbusning ochiq muhokamasini (bundan buyon matnda - ochiq muhokama) o'tkazish to'g'risida yoki tashabbusni rad etish haqida qaror qabul qilinishi belgilangan.

O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 18 apreldagi “Farg‘ona vodiysi iste'molchilariga tabiiy gaz resurslarini barqaror yetkazib berish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 192-25-sonli qarori ijrosi yuzasidan “Farg‘ona-Rishton” magistral gaz quvurining II tarmog‘ini qurish” loyihasi doirasida Oltiariq va Rishton tumanlari hududidan o'tgan uzunligi 39 km,

diametri 720 mm bo‘lgan magistral gaz quvuri tortilgan.

Viloyat hokimligi (keyingi o‘rinlarda - Tashabbuskor) xalq deputatlari viloyat Kengashiga murojaat qilib, “Farg‘ona-Rishton” magistral gaz quvurining II tarmog‘ini qurish” loyihasi doirasida tegishli yer uchastkalarini olib qo‘yish bo‘yicha tashabbusni dastlabki tarzda xalq deputatlari viloyat Kengashining ochiq majlisida ko‘rib chiqishni so‘ragan.

Mazkur masala davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo‘yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo‘yicha hududiy kuzatuv kengashida ko‘rib chiqilib, 2023 yil 24 oktabrdagi 315/01-49-sonli yig‘ilish bayoni rasmiylashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda viloyat hokimligining so‘rov xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. “Farg‘ona-Rishton” magistral gaz quvurining II-tarmog‘ini qurish” loyihasi ahamiyati, loyiha doirasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan “O‘ztransgaz” aksiyadorlik kompaniyasi Farg‘ona magistral gaz quvurlari boshqarmasi boshlig‘i M.Abobakirovning taqdimoti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tashabbuskorning “Farg‘ona-Rishton” magistral gaz quvurining II tarmog‘ini qurish” loyihasi (keyingi o‘rinlarda - loyiha) doirasida tegishli yer uchastkalarini olib qo‘yish bo‘yicha tashabbusni dastlabki tarzda xalq deputatlari viloyat Kengashining ochiq majlisida ko‘rib chiqish haqidagi so‘rov xati inobatga olinsin.

3. Davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo‘yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo‘yicha hududiy kuzatuv kengashi 2023 yil 24 oktyabrdagi 315/01-49-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Yer uchastkalarini olib qo‘yish bo‘yicha tashabbus O‘zbekiston

Respublikasining “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni 4-moddasi 5-xat boshisida nazarda tutilgan “energetika va aloqa tizimining muhandislik ob‘yektlari hamda tarmoqlarini qurish (rekonstruksiya qilish)” talablariga muvofiqligi ko‘rsatib o‘tilsin.

5. Shunga ko‘ra, loyiha doirasida yer uchastkalarini olib qo‘yish bo‘yicha tashabbusning ochiq muhokamasini o‘tkazishga rozilik berilsin.

Bunda, ochiq muhokamalar O‘zbekiston Respublikasining “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni 20-moddasi talablariga qat‘iy rioya qilingan holda o‘tkazilsin.

6. Tashabbuskor (X.Isaqov), Oltiariq tumani hokimligi (Sh.Turdaliyev) hamda Rishton tumani hokimligi (B.Xoliqov) bilan birgalikda mazkur Kengash qarori qabul qilingan kundan e‘tiboran ikki ish kuni o‘tgach, biroq ochiq muhokama o‘tkaziladigan kundan kamida yetti kun oldin huquq egalari uchun ochiq muhokamani o‘tkazish vaqti va joyi ko‘rsatilgan holdagi xabarnoma yuborsin.

Bunda, ochiq muhokamalar Oltiariq va Rishton tumanlarida alohida-alohida ko‘pchilik huquq egalari yashash joyiga yoki joylashgan yeriga yaqin bo‘lgan joylarda o‘tkazilib, bu xaqda tegishli hokimliklarning rasmiy veb-saytida va boshqa ommaviy axborot vositalarida, shuningdek tegishli boshqarmalarning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida e‘lonlar berish orqali ham xabardor qilinadi.

7. Kuzatuv kengashi (X.Sirojiddinov) loyiha doirasida yer uchastkalari jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilishi munosabati bilan zararlarning o‘rni jismoniy va yuridik shaxslarga qoplanishini moliyalashtirish masalasini ko‘rib chiqsin va Kengashning tegishli qarorini qabul qilsin.

8. Kompensatsiya komissiyasi (Z.Zokirov) loyiha doirasida kompensatsiyalarni o‘z vaqtida to‘liq hajmda berilishi ustidan muntazam monitoring va berilgan kompensatsiyalarning hisobi yuritib borsin, shuningdek, kompensatsiyalarni o‘z vaqtida va to‘liq berilmagan hollar aniqlangan taqdirda xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot kiritib borsin.

9. Tashabbuskor (X.Isaqov) uch kun muddatda asoslantiruvchi materiallarni “Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi” hamda “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazishning integratsiyalashgan axborot tizimi”ga integratsiya

qilingan maxsus axborot tizimlari orqali so‘rovnomalar yuborilishini tashkil etsin.

10. Tashabbuskor (X.Isaqov) Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (N.Mashrapov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), Adliya boshqarmasi (A.Bo‘riyev), Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (A.Kadirov), Oltiariq tumani hokimligi (Sh.Turdaliyev) hamda Rishton tumani hokimligi (B.Xoliqov) lar bilan birgalikda ikki hafta muddatda loyiha doirasida ko‘chmas mulk ob‘yektlarining umumiy soni, turi, holatini, joylashgan yerni va boshqa mezonlarni hisobga olgan holda, huquq egalariга beriladigan kompensatsiyaning, shuningdek yer uchastkalarini olib qo‘yish, shu jumladan yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarni, unda joylashgan ko‘chmas mulk ob‘yektlarining bozor qiymatini baholash hamda ularni buzib tashlash bilan bog‘liq xarajatlarning dastlabki miqdorini joylarga chiqqan holda aniqlasin.

11. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

12. Mazkur Kengash qarori ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining “Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi Z.Zoxidov hamda viloyat hokimining o‘rinbosari X.Isaqovlar zimmasiga yuklansin.

**Xalq deputatlari Farg‘ona
viloyati Kengash raisi**



X. Bozarov